

# INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

on the theme " *Architecture is the Abode of Time* " which will be held at  
Samarkand State Architecture and Construction University

## TURAR JOY BINOLARINING O'TMISHI VA BUGUNI

v.b. dotsent, Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat Arxitektura – Qurilish Universiteti

**Chorshanbaev Fayzulla Ziyatovich**

o'qituvchi, Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat Arxitektura – Qurilish Universiteti

**Melieva Chinngul Otaqulovna kata**

Magistr, Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat Arxitektura – Qurilish Universiteti

**Ziyatova Aziza**

**Annotatsiya:** O'rta Osiyo ham eng qadimgi odamlar qarorgohini o'zida saqlab qolganligini fan e'tirof etmoqda. Eramizdan oldingi ikkinchi va birinchi ming yilliklarda bu yerda markazlashgan davlatlar mavjud bo'lganligi to'g'risida bir qator ma'lumot bor. O'sha davr turarjoy binolari arxitekturasi umuman olganda, ko'p xususiyatlari bilan to'rablar istilosi (eramizning VII asri oxiri va VIII asr boshlari)gacha bo'lgan uy-joylari arxitekturasi bilan ancha uyg'unlashgan. Bu o'xshashlik qurilish materiallarining umumiyliigi, xona, daxliz va yordamchi xonalarning shakl jihatidan bir xilligi, yopma va kirish yo'llari yechimlarining umumiyligidadir.

**Kalit so'zlar:** turarjoy, binolar, g'ulom gard, kvartira, ombor, darvozaxona, daxlizlar, ayvon, ulli yoki ters ayvonlar tusin, ustun, eshik, dolon, shiypon, ravon, ayvon, ung ayvon, ters ayvon, kayvon, soyavon, nimayvon, tancha.

O'tmishdagi turar joylar haqidagi ma'lumotlarni o'rganar ekanmiz, biz tarixdan o'rganganlarimizni taxlid qilgan holda hozirgi turar joylarining qadimgidan farqini turar joylarning hozirgi holatiga qulayligini olishimiz o'rganishimiz maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. Tarixdan ma'lumki O'rta Osiyo xalqlarining ko'p bolalik bo'lganligi hamda ehtiyojlarni shu asosda tashkil qilish maqsadida turar joy binolarini loyihalash maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumki O'rta Osiyo azaldan sayyohlar tarixchilari tavsifida minglab shaharlar yurti tarzida talqin etib kelingan. Bu bejiz emas albatta. Tarix sahifalaridan moziyga bir nazar soladigan bo'lsak, Amudaryoning quyi oqimi, Sirdaryoning O'rta oqimi va ikki daryo orasida joylashgan Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo voxalari, Farg'ona vodiysining azal o'tmishdan yuksak madaniyatga ega bo'lgan davlatlar va shaharlarga makon bo'lganligiga ishonch hosil qilamiz. O'rta Osiyo ham eng qadimgi odamlar qarorgohini o'zida saqlab qolganligini fan e'tirof etmoqda. Eramizdan oldingi ikkinchi va birinchi ming yilliklarda bu yerda markazlashgan davlatlar mavjud bo'lganligi to'g'risida bir qator ma'lumot bor. O'sha davr turarjoy binolari arxitekturasi umuman olganda, ko'p xususiyatlari bilan to'rablar istilosi (eramizning VII asri oxiri va VIII asr boshlari)gacha bo'lga uy-joylari arxitekturasi bilan ancha uyg'unlashgan. Bu o'xshashlik qurilish materiallarining umumiyliigi, xona, daxliz va yordamchi xonalarning shakl jihatidan bir killigi, yopma va kirish yo'llari yechimlarining umumiyligidadir.

Boy va zodagonlar xonadonida darvozaxonadan keyin ko'ng-dalangiga devor ko'tarilgan. U "g'ulom gard" ya'ni ulxaytGin" yoki "ul xaytar joy" degan ma'nolarni anglatadi. Begona kishilarga bu devor chegarasidan ichkariga kirish ruxsat etilmagan.

Buxoro uylari "dazushz", kunduzgi o'tirish xonasi, yotoqxonona, shox - ishin va madon kabi tarkibiy elementlardan tashkil topgan. Bular xozirgi tushunchada "kvartira" elementlarini tashkil etadi. Bundan tashqari- xovlida oshxonona, ombor, darvozaxona, uning ustida kitob-me'morchilik maktablari maxsul bo'lib, ayni vaqtda umumiy mushtarak belgilarga ham ega.

Bu umumiylik shundan iboratki, ularning barchasida asosiy element xovli xisoblanadi. hovlilar odatda daxlizlar vositasida bog'langan xonalar hamda ayvon va shu singari yeski yashash joylari, xo'jalik hamda yordamchi xonalar bilan to'rt atrofdan o'rab

olingan, bo'lgan.

Xorazm uylarining me'moriy jihatdan eng yaxshi namunalari Xivada saqlanib qolgan. Bu uylardan aksariyatining xovlilari unchalik katta emas va bunga extiyoj ham bo'lmagan. Aksincha xovlining ko'p qismi ayvon va soyabonlar bilan bekitilib oftob tushishi kamaytirilgan. Xiva imorat sozligining eng ko'zga yaqqol tashlanuvchi yana bir xususiyati bu shimol tomonga qarata ikki xona balandligida qurilgan katta ("ulli" yoki "ters") ayvondir. Uning ichidan xonalarga kiriladi. Bundan tashqari xonalar xovliga ham qaratilgan bo'ladi. Ulli ayvondan tashqari yana ung va boshqa turli ayvonlar ham barpo etilgan. Yozgi xonalar yonida yoki qarshisiga pastak xonalar qurilib, ularning ustiga ayvon solingan. Ayvonlarning aksariyati bir ustunlik. Ustunlar ko'pchiligining tagkursisi marmardan ishlangan. Yogoch elementlar (tusin, ustun, eshik) o'yma - guldor, devorlari jimjimador qilib ishlangan. Yopiq tomlardan (uchak) yotish uchun xam foydalanilgan. qishki va yordamchi xonalar ustiga boloxona (talotin) qurilgan. Bular odatda sinchlar bilan ishlangan.


O'rta Osiyo xalq turar joylari arxitekturasida Samarkand va Toshkent uysozligi aloxida o'rin tutadi. Bu ikki Shahar me'morchiligidagi umumiylik shundan iboratki, turarjoy binolari ko'chalar arxitekturasining shakllanishida muxim o'rin tutgan. Uylarning ko'pchiligi ikki qavatli qilib qurilgan. Ikkinchi oshxonasidagi boloxona birinchi qavat devoridan birmuncha oldinroqqa chiqarilib, uzun ayvoncha — galereya shaklida qurilgan Bundan tashqari xonalarning joylashuvida ham umumiylik bor. Chunonchi, bularda yashash xonalariga kirish o'rtada joylashgan ayvon orqali bo'lgan.

Umuman olganda O'rta Osiyo xalqlarining turarjoylari qurilishi uslubi ko'p ming yillik madaniy rivojlanish maxsuli bo'lib juda ham rangbarang me'moriy an'analarni o'zida mujassam etgan. Masalan, birgina yozgi xonalarning o'nga yaqin turi mavjud va ma'lum. Bular - dolon, shiypon, ravon, ayvon, ung ayvon, ters ayvon, kayvon, soyavon, nimayvon va xokazolardir.

Izlanishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, bu an'analarning ichida bevosita iqlim sharoitiga moslashish va xalq urfodatlarini - xisobga olish tufayli yuzaga kelgan o'nlab me'moriy qonuniyatlar yuzaga kelgan bo'lib, ular asossiz unutilib yuborylayapti. Buning asosiy sababi — inqilobdan keyin O'rta Osiyo xalqari madaniy turmush tarzi keskin o'zgardi. Madaniy taraqqiyotning tobora yuksalishi natijasida xonadonlarga tancha (sandali) o'rniga pechka, keyinroq esa suv isitgichlari, lampa o'rniga elektr yoritgichlari, xovlilarga ichimlik suv, Chiqindisuv, gaz va shu singarilar kirib kela boshladi. Natijada shu davrga qadar qurilgan xonalar va uylarni yashash sharoiti talabga javob bermay qoldi. Ammo qurilish ishlarini olib borishda, ayniqsa istiqomat binolarini barpo etishda mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olish muhim ekanligini xayot talablari taqozo etadi. Hozirgi davrda O'rta Osiyo sharoiti talab qiladigan vositalarning hisobga olinishi kerakligi o'rganilgan holda, ayvonli qildib, hozirgi namunali turar joy binolarida yana qo'llanilmoqda. Qishloqdagi turar joy binolarining mahalla markazlaridagi mahalla, choyxona, masjidlar qurilganligi, O'rta Osiyo halqlarining oldingi davrlarini e'tiborga olib, o'rganilgan holda, loyiha qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Biz shu kecha kunduzda turar joy binolarini kurishda har bitta kurilishda kayirda qaysi voxoda qurilayogonligini etiborga olgan xolda urganib chikishimiz kerak yani analiz qilib atrof muhid taxlilini urgangan xolda. O'zbekiston iqlimini urganib qaraydigan bulsak keskin kontenintal bo'lib tez qizib tez soviydigan iqlim xisoblanadi. Atrof muhid tahlilida kaysi viloyatga kurilayotganligini etiborga olshimiz maqsadga mofiq bo'ladi.

Turar uy-joylar o'zining har xil xususiyatlariga qarab quyidagilarga bo'linadi (1-rasm).

A) aholini joylashtirish usuliga qarab uy-joylar 2 guruhga bo'linadi:



1-rasm. Turar joy binolarining tasnifi:

1. qishloq tipidagi hovlilil uylar;
2. shahar tipidagi hovlilil uylar;
3. kam qavatli uylar;
4. o'rta qavatli uylar;
5. ko'p qavatli uylar;
6. baland qavatli uylar;
7. bolalar intemati;
8. yoshlar yotoqxonasi;
9. oilali yoshlar yotoqxonasi;
10. qariyalar uyi;
11. kommunal mehmonxonalar;
12. turistlar mehmonxonasi;
13. tranzit mehmonxonalar;
14. yil bo'yi dam olish uylari;
15. mavsumiy dam olish uylari;
16. kundalik dam olish uylari;
17. pansionatlar.

1. Xonadonlarga bo'lingan uy-joylar, bular oilalarni xonama-xona joylashtirishga mo'ljallangan bo'ladi.
2. Xonalarga bo'lingan turar uy-joylar esa oilalami xonama-xona joylashtirishga mo'ljallangan bo'ladi. Bu uylarda umumiy maishiy xizmat bo'limlari joylashgan.

**Adabiyotlar ro'yxati.**

1. Ahmedov M.Q. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. T.: 1995.
2. Po'latov X.Sh. O'zbekiston arxitektura yodgorliklari. T.: 2003.
3. Po'latov X. Sh. Shaharsozlik tarixi. T.: Fan va texnologiya, 2008.
4. Po'latov X.Sh. "Shaharsozlik tarixi" fanidan mustaqil ishni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma. T.: TAQI, 2009.